

## KOREYS TILIDA SIFAT SO'Z TURKUMI

**Mashkurova Munira Abdurahmon qizi**

*O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti Sharq filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada koreys tilidagi sifat so'z turkumi haqida so'z boradi.*

**Kalit so'lar:** *Til, madaniyat, muloqot, sifatlar, sifat ma'nosi, grammatika, sifatdosh, adjective, so'z turkumi.*

“Til – jamiyatning mavjudligi shartlaridan biri. Til – milliy madaniyat unsurlaridan hisoblanadi. Uni moddiy vositalardan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi.” Bundan xulosa shuki, til madaniyatning ajralmas qismidir. Har bir millat va xalqning noyoblighi uning tilida va bu uning ming yillar davomida shakllangan o'z tarixi, o'z madaniyatida namoyon bo'ladi. Tildan boshqa hech bir hodisa millatning o'ziga xosliklarini to'la ochib bera olmaydi. Til – inson tafakkuri ko'zgusi. Har bir davlat o'z milliy tiliga ega.

Til va madaniyatning o'zaro munosabati – ko'p qirrali murakkab masala. Turli tillarning namoyondalari bir vaqtning o'zida turli madaniyatlarning namoyondasi hamdir. Madaniyatlararo muloqot esa, birinchi o'rinda til ko'prigi orqali amalga oshiriladi. Bundan kelib chiqadiki, o'zga madaniyat egasi bilan bo'lib o'tadigan har qanday muloqot, o'zga tilni o'rganish jarayoni madaniyatlararo muloqatni ta'minlab berishga xizmat qiladi. Shuning uchun, koreys tilini chet tili sifatida o'rgatish jarayonida uning madaniyatini o'rgatmaslikning iloji yo'q. Chunki, til va madaniyatning o'zaro aloqasini, “milliy xarakter”ni hisobga olgan holda o'rganish kerak.

So'ngi paytda koreys tilini o'rganish yoshlar orasida tendentsiyaga aylandi va bu holat tobora kuchaymoqda. Bizga ma'lumki til o'rganishda eng muhim narsa talaffuzdir. Faqat to'g'ri va ravon talaffuz kishilar orasida samarali muloqotni ta'minlaydi. Hozirgi axborot texnologiyalari asrida tarmoq orqali koreys tilini o'rganish osonlashdi. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarda koreys tilini o'rgatuvchi videolarning notekis sifati koreys tilini o'rgatish uchun katta muammo tug'diradi.

Ma'lumki, koreys tili ajratilgan til sifatida tasniflanadi; kelib chiqishining turli xil farazlari mavjud (Dravidian, Yapon, Paleo-Osiyo, Hind-Evropa, Oltoy).

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, tarixiy jihatdan koreys va yapon tillari o'rtasidagi munosabatlar o'rnatilmagan bo'lsa-da, ikkala til ham bir-biriga o'xshash grammatik tuzilmalarga ega.

Har bir mamlakatning o'zining tili, tarixi shuningdek o'ziga xos sifatlarlari mavjuddir. Qolaversa, o'sha mamlakat o'z tilining muhim shakllari hamda o'z tizimiga ega bo'lgan turli xil grammatik til hodisalarni ko'rib o'tishimiz mumkin. Misol qilib oladigan bo'lsak, nafaqat o'zbek tilida bunday ko'p til tizimida so'z turkumlar borligi balki ularni turli xil yo'llar orqali o'rganish usullari mavjud. Shuning bilan bir qatorda quyida keltirilgan sifat tushunchasini

quydagicha ifodalashimiz mumkin; Sifat (tilshunoslikda) — predmet belgisini bildiruvchi soʻzlar turkumi. Grammatikada belgi soʻzi keng tushunchali boʻlib, u belgini rangturi, hajm, shaklkoʻrinish, xususiyat va shakliga koʻra bildiradi: qizil, keng, yoqimli va boshqa. Shu xususiyatlariga koʻra, sifatlar maʼnosiga qarab bir necha turga boʻlinadi: rang-tus bildiruvchi sifatlar — oq, sariq, qizil, nimrang kabi; maza-tam bildiruvchi sifatlar — shirin, nordon, achchiq, bemaza kabi; xususiyat bildiruvchi sifatlar — mehribon, sodda, mugʻambir, yuvosh kabi; shaklkoʻrinish bildiruvchi sifatlar — gavnali, novcha, uzunchoq, yassi kabi; hajmoʻlchov bildiruvchi sifatlar — keng, tor, katta, ogʻir, yengil kabi va boshqa. Sifat turkumi oʻziga xos soʻz yasalishi va morfologik tizimiga ega. Oʻzbek tilida yasama sifatlar, asosan, sifat yasovchi suffikslar yordamida hosil qilinadi.

Yuqorida keltirib oʻtilganidek, chet tillarida yaʼni koreys tilida ham ushbu sifat tushunchasi quydagicha beriladi. (형용사) deb ataladi. Sifat tushunchasi (형용사의 개념)

1. Sifatning maʼnosi va grammatik belgilari. Sifat soʻzlar predmetining belgisi va xususiyatlari, sifatini anglatadi.

2. Sifat yasalishi. Sifat ikki xil usulda yasaladi: qoʻshma (복합형용사), yasama sifatlar (파생형용사) orqali yasaladi.

1. Qoʻshma sifat: (복합형용사). 명사+형용사+(ot+sifat) ga misollar; 값싸다(arzon), 배부르다(toʻla), 올곧다(tik) kabilarni koʻrishimiz mumkin.

2. 형용사 어간+형용사(sifatdosh oʻzak + sifatdosh)ga misollar; 굳세다(kuchli), 검푸르다(quyuq koʻk), 희멀겁다(kulrang) kabi soʻzlar ham qoʻshma sifatni hosil qiladi.

3. 반복(takrorlangan soʻzlar) ga misollar;

크나크다(katta), 검디검다(quyuq qorongʻu) kabilar soʻzlarning takrorlanishidan hosil boʻlgandir. 2. Yasama sifatlar: (파생형용사).

1.-하-: 깨끗하다(toza), 조용하다(sokin, tinch) kabi soʻzlar qoʻshimcha qoʻshilishi natijasida yangi sifat soʻz turkumidagi soʻz hosil boʻlgan.

2.-답-: 꽃답다(guldek), 정답다(shavqatli) soʻzlar ham qoʻshimcha qoʻshilishi natijasida hosil boʻladi.

Ushbu koreys tilidagi sifat soʻz turkumi ham oʻzbek tilidagi sifatdagidek ishlatiladi. Bundan boshqa masalan ingliz tilida ham shunday ishlatilishiga guvoh boʻlamiz. Oʻzbek tilida sifat soʻz turkumi oddiy "sifat" deyilsa, koreys tilida bu soʻz turkumi "형용사" ingliz tilida esa "adjective" kabi ishlatiladi. Biz yuqorida sifatning morfologik xususiyatlari ularning tuzilishi va grammatik belgilarini aniqlab oldik. Quyida esa inglizcha sifatning morfologik tuzilishi uning grammatik hodisalarini kuzatishimiz mumkin: Tilshunoslikda sifatdosh

(qisqartirilgan adj) ot yoki ot soʻz birikmasini oʻzgartiruvchi yoki uning koʻrsatuvchisini tavsiflovchi soʻzdir. Uning semantik roli ot tomonidan berilgan ma'lumotni o'zgartirishdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. OʻzMe ensiklopedia-2005 maʼlumotlari <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sifat>
2. Kim Chun Shik—Koreys tili grammatikasi. Samarqand-2007y. 73-74b.
3. Dictionary of Grammatical Terms in Linguistics. Taylor & Francis. p. 188. ISBN 978-1-134-88420-9 <https://en.m.wikipedia.org/wiki/Adjective>
4. Баенханова, И. (2019). Паремияларнинг турли тизимдаги тилларда умумий хусусиятлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (2 (71)), 64-66.